2026-yil
6-son

# FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI

## ILMIY - METODIK

# JURNALI

saen.uz

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

## TAHRIR HAY'ATI:

**01.00.00 – FIZIKA-MATEMATIKA FANLARI**
*Ayupov Shavkat Abdullayevich, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*A'zamov Abdulla, fizika-matematika fanlari doktori, akademik*
*Zohidov Erkin A'zamovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

**02.00.00 – KIMYO FANLARI**
*Normaxamatov Nodirali Soxobataliyevich, kimyo fanlar doktori, professor*
*Tojibayev Komiljon Sharobitdinovich, kimyo fanlar doktori, akademik*

**03.00.00 – BIOLOGIYA FANLARI**
*Abdurahmonov Ibrohim Yo'lchiyevich, biologiya fanlari doktori, akademik*
*Sulaymonov Botirjon Abdushukurovich, biologiya fanlari doktori, akademik*

**04.00.00 – GEOLOGIYA-MINERALOGIYA FANLARI**
*Fayziyev Abdulhaq Radjabovich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*
*Husanov Sultonboy To'xtayevich, geologiya-mineralogiya fanlari doktori, professor*

**05.00.00 – TEXNIKA FANLARI**
*Allayev Qahramon Rahimovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Majidov Inom Urishevich, texnika fanlari doktori, professor*
*Turobjonov Sadritdin Maxamatdinovich, texnika fanlari doktori,* akademik
*Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor*

**06.00.00 – QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI**
*Namozov Shodmon Ergashovich, qishloq xo'jaligi fanlari doktori, akademik*
*Shoumarov Hikmat Bahromovich, qishloq xo'jaligi fanlari nomzodi, professor*

**07.00.00 – TARIX FANLARI**
*Ziyo Azamat Hamid o'g'li, tarix fanlari doktori, akademik*
*Sagdullayev Anatoliy Sagdullayevich, tarix fanlari doktori, akademik*
*Yusupova Diloram Yunusovna, tarix fanlari doktori, akademik*

**08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI**
*Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*Musayev Behzod Anvarovich, iqtisod fanlari nomzodi*
*To'xliyev Nurislom, iqtisod fanlari doktori, akademik*
*Yusupov Ahmadbek Tadjiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*
*G'ulomov Saidahror Saidahmedovich, iqtisod fanlari doktori, akademik*

**09.00.00 – FALSAFA FANLARI**
*Nazarov Qiyom Normirzayevich, falsafa fanlari doktori, professor*
*Saifnazarov Ismoil Saifnazarovich, falsafa fanlari doktori, professor*

**10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI**
*Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor*
*Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Xidirov Rajab Gulmatovich, filologiya fanlari nomzodi, dotsent (Tojikiston)*

**11.00.00 – GEOGRAFIYA FANLARI**
*Nigmatov Asqar Nigmatullayevich, geografiya fanlari doktori, professor*
*Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, geografiya fanlari doktori, professor*

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

**12.00.00 – YURIDIK FANLAR**
*Rustamboyev Mirzayusuf Hakimovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Saidov Akmal Xolmatovich, yuridik fanlar doktori, akademik*
*Xolmo'minov Jumanazar Toshtemirovich, yuridik fanlar doktori, professor*
*Qodirov Bobiromon Bekmurodovich, yuridik fanlar doktori, professor*

**13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI**
*Djurayev Risboy Haydarovich, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Ibraimov Xolboy, pedagogika fanlari doktori, akademik*
*Musurmonova Oynisa, pedagogika fanlari doktori, professor*
*Umarov Bahrom Norboyevich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

**14.00.00 – TIBBIYOT FANLARI**
*Akilov Xabibulla Ataullayevich, tibbiyot fanlari doktori, professor*
*Nazirov Feruz Gafurovich, tibbiyot fanlari doktori, akademik*

**15.00.00 – FARMATSEVTIKA FANLARI**
*Abdullabekova Viloyat Nurillabekovna, farmatsevtika fanlari doktori, professor*
*Tulaganov Abduqodir Abdurahmonovich, farmatsevtika fanlari doktori, professor*

**16.00.00 – VETERINARIYA FANLARI**
*Daminov Asadullo Suvonovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*Jabborov Shuhrat Abdumajidovich, veterinariya fanlari doktori, professor*
*G'afurov Aktam G'afurovich, veterinariya fanlari doktori, professor*

**17.00.00 – SAN'ATSHUNOSLIK FANLARI**
*Ahmedova Nigora Rahimovna, sanatshunoslik fanlari doktori, professor*
*Hakimov Akbar Abdullayevich, san'atshunoslik fanlari doktori, akademik*

**18.00.00 – ARXITEKTURA**
*Nozilov Dodo Avazovich, arxitektura fanlari doktori, professor*
*Uralov Axtam Sindarovich, arxitektura fanlari doktori, professor*

**19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI**
*Abdusamatov Hasanboy Usmonjon o'g'li, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Karimova Vasila Mamanosirovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Halimova Mashraboy Vohidovna, psixologiya fanlari doktori, professor*
*Lazar Drajeta, psixologiya fanlari doktori, professor, Belgrad, Serbiya*
*Karpinskiy Konstantin Viktorovich, psixologiya fanlari doktori, professor, Grodno, Belarussiya*
*Suletbayeva Ella Serikbayevna, psixologiya fanlari doktori, dotsent*

**22.00.00 – SOTSIOLOGIYA FANLARI**
*Bekmurodov Mansur Bobomurodovich, sotsiologiya fanlari doktori, professor*
*Toshmuhamedova Dilorom Gafurdjanovna, sotsiologiya fanlari doktori*

**23.00.00 – SIYOSIY FANLAR**
*Fayzullayev Alisher Omonullayevich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Hasanov Otabek Abdurashidovich, siyosiy fanlar doktori*
*Paxrutdinov Shukritdin Ilyasovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Omonov Baxtiyor Axtamovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Quronboyev Qahramon Qo'chqorovich, siyosiy fanlar doktori, professor*
*Avazov Komil Xolliyevich, siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori*

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

**24.00.00 – ISLOMSHUNOSLIK FANLARI**

*Ibrohimov Ne'matulla, filologiya fanlari doktori, akademik*
*Islomov Zohidjon Mahmudovich, filologiya fanlari doktori, professor*

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

# MUNDARIJA


| | |
|---|---|
| **Jurayev B.** O‘spirinlar huquqiy dunyoqarashini shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik determinantlarning o‘ziga xos xususiyatlari…….. | **8** |
| **Karimov X.** Sportchilarni bo‘lajak musobaqalarga tayyorlashning psixologik asoslari..... | 14 |
| **Maxmudova O.** O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablari asosidagi ijodiy rivojlanish yo‘nalishining mazmun-mohiyati……... | 23 |
| **Parpiyva N.T.** Matematika o‘qitish metodikasi fanida kombinatorika elementlarini o‘qitishning noan’anaviy usullari……. | 34 |
| **Maxmudova M.A., Tilovov I.Q.** Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy-pedagogik kompetentligini raqamli ta’lim muhitida shakllantirish metodikasi ……. | 41 |
| **Авазов К.Х.** Национальная безопасность в Центральной Азии: системный анализ современных проблем……. | 49 |
| **Mamatova G.A. Badiiy matn ona tilini produktiv o‘qitish vositasi sifatida……...** | 61 |
| **Asamatdinova J.** Qaraqalpaqstan Respublikasi qánigelestirilgen mekteplerinde filologiya pánlerin oqitiwda pedagogikalíq qádiryatlardi qáliplestiriw..... | 67 |
| **Батыралиева Ш.П. Современные подходы к развитию духовно-нравственной деятельности студентов……** | 73 |
| **Norbosheva M., Abduyeva N.** O‘smirlik davrida stress va uni boshqarish usullari……. | 80 |
| **Ishankulova G.B.** O‘zbek oilalarida gender munosabatlar namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlari..... | 87 |
| **Jabborova M. T.** O‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda differensial va individual yondashuvlarning samaradorligi ..... | 93 |
| **Yunusova D. X.** Xalq pedagogikasi an’analarining boshlang‘ich ta’limdagi tarbiyaviy imkoniyatlari …….. | 100 |
| **Azimova N. N.** Talabalarning o‘quv tashabbuskorligini rivojlantirishda milliy madaniy qadriyatlarning pedagogik imkoniyatlari ..... | 109 |
| **Akramov D. I.** Advancing global business management through digital innovations and cultural dynamics: prospects and challenges …….. | 116 |
| **Nuriddinov B. B.** Advancing global business management through digital innovations and cultural dynamics: prospects and challenges …….. | 123 |


© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

**UDK 372.881.161.1:373.3**

# O‘ZBEK TILIDA TA’LIM OLUVCHI BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIGA RUS TILINI O‘RGATISHDA DIFFERENSIAL VA INDIVIDUAL YONDASHUVLARNING SAMARADORLIGI

**Jabborova Muslima Toxirovna,**
**Ziroyatova Odina Maxmudjon qizi,**
University of Business and Science universiteti “Til va adabiyot ta’limi” kafedrasi o‘qituvchisi

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatish jarayonida differensial va individual yondashuvlarning pedagogik samaradorligi tahlil qilinadi. O‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh va psixologik xususiyatlari, tilni o‘zlashtirish darajasidagi individual farqlar hamda ularni hisobga olgan holda tashkil etilgan ta’limning natijadorligi o‘rganildi. Tadqiqot davomida kuzatish, pedagogik tajriba va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Olingan natijalar differensial va individual yondashuvlarning o‘quvchilarning nutqiy kompetensiyasi, lug‘at boyligi hamda kommunikativ faolligini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini tasdiqladi.

**Kalit so‘zlar:** differensial yondashuv, individual yondashuv, rus tili, boshlang‘ich ta’lim, kommunikativ kompetensiya, o‘quv faoliyati, o‘zbek tilida ta’lim.

# THE EFFECTIVENESS OF DIFFERENTIATED AND INDIVIDUAL APPROACHES IN TEACHING RUSSIAN TO PRIMARY SCHOOL STUDENTS WITH UZBEK AS THE LANGUAGE OF INSTRUCTION

**Abstract.** This article examines the effectiveness of differentiated and individual approaches in teaching Russian to primary school students. The study analyzes age-related and psychological characteristics of pupils studying in Uzbek-medium schools, as well as differences in language acquisition levels. Observation, pedagogical experiment and comparative analysis methods were used. The results indicate that differentiated and individual approaches positively influence the development of communicative competence, vocabulary and speech activity.

**Keywords:** differentiated approach, individual approach, Russian language, primary education, communicative competence, communicative activity.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI
2026-yil
6-son

# ЭФФЕКТИВНОСТЬ ДИФФЕРЕНЦИРОВАННОГО И ИНДИВИДУАЛЬНОГО ПОДХОДОВ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ

**Аннотация.** В данной статье анализируется педагогическая эффективность дифференцированного и индивидуального подходов в процессе обучения русскому языку учащихся начальных классов. Исследованы возрастные и психолого-педагогические особенности младших школьников, обучающихся на узбекском языке, а также индивидуальные различия в уровне усвоения языка и результативность организации обучения с учётом этих особенностей. В ходе исследования были использованы методы педагогического наблюдения, педагогического эксперимента и сравнительного анализа. Полученные результаты подтвердили, что применение дифференцированного и индивидуального подходов оказывает положительное влияние на развитие речевой компетенции, обогащение словарного запаса и повышение коммуникативной активности учащихся.

**Ключевые слова:** дифференцированный подход, индивидуальный подход, русский язык, начальное образование, коммуникативная компетенция, учебная деятельность, обучение на узбекском языке.

Bugungi kunda ta’lim tizimini modernizatsiya qilish sharoitida shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni rivojlantirish hamda har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, o‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda samarali pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish va tilni o‘zlashtirish sifatini oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi [9;11].

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilimlarni o‘zlashtirish darajasi, nutqiy rivojlanishi, qiziqishlari va psixologik xususiyatlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Shu sababli barcha o‘quvchilarga bir xil talab va usullar asosida ta’lim berish har doim ham kutilgan natijalarni ta’minlay olmaydi. Mazkur holat rus tilini o‘qitish jarayonida differensial va individual yondashuvlardan foydalanish zaruratini yuzaga keltiradi [2; 4].

Ta’limni differensiallashtirish va individuallashtirish muammosi pedagogika hamda psixologiya fanlarida uzoq yillardan buyon tadqiq etib kelinayotgan dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu masalaning nazariy asoslari L.S. Vigotskiyning madaniy-tarixiy rivojlanish nazariyasi va yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi bilan bog‘liq bo‘lib, unda o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda ta’limni tashkil etish zarurligi asoslab berilgan [3].

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

A.G. Asmolov universal o‘quv harakatlari nazariyasi doirasida ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan modelini ishlab chiqib, o‘quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishning muhim sharti ekanligini ta’kidlaydi [1]. I.A. Zimnyaya esa ta’lim jarayonida o‘quvchining psixologik xususiyatlarini e’tiborga olish bilimlarni samarali o‘zlashtirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatishini qayd etadi [5].

A.A. Leontyevning ilmiy qarashlarida nutqiy faoliyatning rivojlanishi kommunikativ yondashuv bilan chambarchas bog‘liqligi asoslab berilgan bo‘lib, tilni o‘qitish jarayonida muloqotga yo‘naltirilgan topshiriqlardan foydalanishning ahamiyati yoritilgan [6]. D.B. Elkonin tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda esa kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning psixologik xususiyatlari hamda o‘quv faoliyatining shakllanish mexanizmlari tahlil qilingan [14].

Xorijiy til va rus tilini o‘qitish metodikasi masalalari N.D. Galskova va N.I. Gezning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Mualliflar differensial yondashuv o‘quvchilarning bilim darajasi va individual ehtiyojlarini hisobga olishga imkon berishini ta’kidlaydilar [4]. E.I. Passov kommunikativ metodning nazariy asoslarini ishlab chiqib, tilni o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchilarda muloqot qilish ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat ekanligini qayd etadi [7]. A.N. Shchukin hamda G.M. Frolova tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda chet tillari va rus tilini o‘qitishda zamonaviy metodik yondashuvlarning afzalliklari ochib berilgan [12; 13].

Shunday qilib, ilmiy adabiyotlar tahlili differensial va individual yondashuvlarning nazariy asoslari yetarlicha ishlab chiqilganligini ko‘rsatadi. Biroq o‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatish jarayonida mazkur yondashuvlarning samaradorligi masalasi qo‘shimcha ilmiy tahlilni talab qiladi, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatish jarayonida differensial va individual yondashuvlardan foydalanish nafaqat o‘quvchilarning bilim darajasidagi tafovutlarni hisobga olish, balki ularning kommunikativ faolligini rivojlantirish imkonini ham beradi. Kichik maktab yoshidagi bolalar qabul qilish tezligi, xotira hajmi, lug‘at boyligi va nutqiy tajribasi jihatidan bir-biridan farqlanadi. Shu sababli bir xil topshiriq barcha o‘quvchilar uchun bir xil darajada samarali bo‘lavermaydi [3; 5].

Amaliyotda uchraydigan muammolardan biri ayrim o‘quvchilarning rus tilida erkin fikr bildira olmasligi bilan bog‘liq. Masalan, «Моя школа» mavzusini o‘rganishda ba’zi o‘quvchilar maktab hayoti haqida 5–6 ta gapdan iborat matn tuza olsa, ayrimlari faqat alohida so‘zlarni aytish bilan cheklanadi. Bunday holatda barcha o‘quvchilarga bir xil topshiriq berilishi ularning o‘quv motivatsiyasining pasayishiga olib kelishi mumkin [4].

Mazkur muammoning yechimi sifatida topshiriqlarni murakkablik darajasiga ko‘ra tabaqalashtirish maqsadga muvofiqdir. Masalan, yuqori

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

tayyorgarlikka ega o‘quvchilarga «Расскажите о своей школе» mavzusida kichik hikoya tuzish topshirilsa, o‘rta darajadagi o‘quvchilar tayanch so‘zlar asosida gaplar tuzishi, boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilarga esa rasmlar va tayyor konstruksiyalar yordamida javob berish imkoniyati yaratiladi [12].

Yana bir muammo boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining dars davomida faollik darajasining turlicha bo‘lishida namoyon bo‘ladi. Odatda faol o‘quvchilar dars jarayonida ko‘proq ishtirok etadi, tortinchoq yoki o‘zlashtirish darajasi past bo‘lgan o‘quvchilar esa passiv holatda qoladi. Natijada ularning kommunikativ kompetensiyasi yetarli darajada rivojlanmaydi [6].

Ushbu muammoni bartaraf etishda juftlik va kichik guruhlarda ishlash samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. E.I. Passovning kommunikativ ta’lim konsepsiyasiga ko‘ra, muloqotga asoslangan vaziyatlar o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi [7]. Masalan, «В библиотеке» mavzusida o‘quvchilar «kutubxonachi» va «o‘quvchi» rollarini bajarib, o‘zaro dialog tuzadilar. Kuchli o‘quvchilar muloqotni mustaqil olib borishi mumkin bo‘lsa, boshqa o‘quvchilar namunaviy savol va javoblardan foydalanadilar. Bunday hamkorlik barcha o‘quvchilarning nutqiy faoliyatga jalb etilishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinflarda uchraydigan yana bir muammo yangi so‘zlarni eslab qolishdagi individual farqlar bilan bog‘liq. Ayrim o‘quvchilar yangi leksik birliklarni tez o‘zlashtirsa, boshqalari ularni ko‘p marotaba takrorlashga ehtiyoj sezadi [14]. Shu sababli bir xil tempda olib boriladigan dars ayrim o‘quvchilarning orqada qolishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Bu kabi muammoni hal qilishda vizual materiallar, didaktik o‘yinlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega [13]. Masalan, «Домашние животные» mavzusini o‘rganishda rasmlar, kartochkalar, audioyozuvlar va rolli o‘yinlardan foydalanish yangi so‘zlarni eslab qolishni osonlashtiradi. Shu bilan birga, o‘quvchilarga individual kartochkalar asosida mustaqil ishlash imkoniyatini yaratish ham ijobiy natija beradi.
L.S. Vigotskiyning yaqin rivojlanish zonasi nazariyasiga ko‘ra, o‘quvchi murakkab vazifalarni tajribali tengdoshlari yoki o‘qituvchi ko‘magida muvaffaqiyatli bajarishi mumkin [3].

Shu nuqtai nazardan, rus tili darslarida «kuchli–sust» tamoyili asosida juftliklarni tashkil etish o‘quvchilarning bir-biridan o‘rganishiga xizmat qiladi. Masalan, «Времена года» mavzusida kuchli o‘quvchi sherigiga yangi so‘zlarning talaffuzi va gap tuzilishini tushuntiradi. Bunday hamkorlik nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki o‘quvchilarda muloqot qilish va hamkorlik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi [1].


Differensial va individual yondashuvlarni o‘zaro uyg‘unlashtirish o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantiradi hamda ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayniqsa, o‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday yondashuvlar har bir bolaning imkoniyatlarini ro‘yobga

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

chiqarishga va rus tilini o‘zlashtirishdagi mavjud qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi.

**Differensial yondashuv asosida topshiriqlarni tashkil etish namunasi**

| Mavzu | Yuqori darajadagi o‘quvchilar | O‘rta darajadagi o‘quvchilar | Boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar |
|---|---|---|---|
| «Моя семья» | Oila haqida 7–8 ta gapdan iborat hikoya tuzish | Tayanch so‘zlar asosida 4–5 ta gap tuzish | Rasmlar asosida oila a’zolarini nomlash |
| «В магазине» | Mustaqil dialog tuzish | Tayyor namunalar asosida suhbatni davom ettirish | Alohida so‘z va iboralardan foydalanish |
| «Времена года» | Fasllarni taqqoslash | Har bir fasl haqida qisqa gaplar tuzish | Rasmlarni moslashtirish va so‘zlarni takrorlash |
| «Домашние животные» | Hayvonlar haqida tavsif berish | Savollarga javob berish | Rasmlarni nomlash |




© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Bu diagrammada topshiriqlar murakkablik darajasi bo‘yicha shartli ravishda baholandi: 1 - boshlang‘ich daraja, 2 - o‘rta daraja, 3 - yuqori daraja.

Diagrammadan ko‘rinib turibdiki, har bir mavzu bo‘yicha topshiriqlar o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos ravishda uch bosqichda tashkil etilgan. Boshlang‘ich darajadagi o‘quvchilar uchun rasmlar, tayyor so‘zlar va iboralarga asoslangan sodda topshiriqlar berilgan bo‘lsa, o‘rta darajadagi o‘quvchilar tayanch so‘zlar asosida gap tuzish hamda savollarga javob berishga yo‘naltirilgan. Yuqori darajadagi o‘quvchilar esa mustaqil hikoya, dialog va tavsif tuzish kabi ijodiy topshiriqlarni bajarishga jalb etilgan. Bu differensial yondashuvning o‘quvchilarning individual imkoniyatlarini hisobga olishdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda differensial va individual yondashuvlardan foydalanish ta’lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur yondashuvlar o‘quvchilarning yosh, psixologik va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning ta’lim ehtiyojlarini qondirish, nutqiy faoliyatini faollashtirish hamda kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish imkonini beradi.

Mavzuga oid ilmiy-metodik adabiyotlar tahlili differensial va individual yondashuvlarning nazariy asoslari L.S. Vigotskiy, A.G. Asmolov, A.A. Leontyev, I.A. Zimnyaya va boshqa olimlarning tadqiqotlarida keng yoritilganligini ko‘rsatdi [1; 3; 5; 6]. Biroq, o‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘qitish amaliyotida mazkur yondashuvlarni qo‘llashning ayrim jihatlari qo‘shimcha takomillashtirishni talab etadi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, o‘quvchilarning tayyorgarlik darajasi, nutqiy rivojlanishi va o‘zlashtirish sur’atidagi tafovutlar differensial topshiriqlar tizimini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu maqsadda topshiriqlarni murakkablik darajasi va bajarish usullariga ko‘ra tabaqalashtirish, shuningdek, individual xususiyatlarni hisobga olgan holda tashkil etish barcha o‘quvchilarni faol o‘quv jarayoniga jalb etishga yordam beradi [4; 7].

Amaliy misollar va ishlab chiqilgan differensial topshiriqlar tizimi shuni ko‘rsatdiki, yuqori, o‘rta va boshlang‘ich tayyorgarlik darajasiga ega o‘quvchilar uchun moslashtirilgan vazifalardan foydalanish ularning rus tilini o‘zlashtirish sifatini oshirish, lug‘at boyligini kengaytirish, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirish hamda o‘quv motivatsiyasini kuchaytirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi [12; 13].

Bizning fikrimizcha, differensial va individual yondashuvlarning uyg‘unligi boshlang‘ich sinflarda rus tilini o‘qitishning muhim pedagogik shartlaridan biri hisoblanadi. Mazkur yondashuvlardan tizimli foydalanish o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish, ularning individual imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarish hamda ta’lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

Shunday qilib, o‘zbek tilida ta’lim oluvchi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga rus tilini o‘rgatishda differensial va individual yondashuvlarni qo‘llash zamonaviy ta’limning shaxsga yo‘naltirilgan tamoyillarini amalga oshirishga, har bir o‘quvchining qobiliyati va ehtiyojlariga mos pedagogik muhitni yaratishga hamda rus tilini o‘qitish samaradorligini ta’minlashga imkon beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Асмолов А. Г. Как проектировать универсальные учебные действия в начальной школе: от действия к мысли. – М.: Просвещение, 2011.
2. Бим И. Л. Теория и практика обучения иностранному языку в средней школе. – М.: Просвещение, 2020.
3. Выготский Л. С. Педагогическая психология. – М.: АСТ, 2021.
4. Гальскова Н. Д., Гез Н. И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2021.
5. Зимняя И. А. Педагогическая психология. – М.: Академия, 2020.
6. Леонтьев А. А. Язык и речевая деятельность в общей и педагогической психологии. – М.: Московский психолого-социальный институт, 2003. Пассов Е. И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. – М.: Просвещение, 1991.
7. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2019.
8. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son qarori “Maktabgacha va maktab ta’limi tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
10. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 27-martdagi 157-son qarori “Umumiy o‘rta ta’limning davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”.
11. Щукин А. Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. – М.: Юрайт, 2023.
12. Щукин А. Н., Фролова Г. М. Методика преподавания иностранных языков. – М.: Юрайт, 2024.
13. Эльконин Д. Б. Психология обучения младшего школьника. – М.: Юрайт, 2022.

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari

FAN VA TA'LIM YANGILIKLARI
JURNALI

2026-yil
6-son

**Muassis - "FAN VA INNOVATSIYA YANGILIKLARI" MCHJ**
**Jurnal hamkori - «PROFI UNIVERSITY»**

**Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 24-may kuni № 454068-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.**

**Bosh muharrir:**
**Shoumarov G'ayrat Bahromovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), akademik**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Qodirov Umarali Do'stqobilovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor**

**Mas'ul kotib:**
**Muqimov Alisher**

Jurnal 2024-yilda tashkil etilgan, 1 oyda bir marta o'zbek, tojik, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, rus va ingliz tillarida nashr etiladi.

Tahririyat manzili: 190110, Toshkent shahri Uchtepa tumani, Bog'iston MFY, 14-mavze, 8-uy.

Telefonlar: +998 90 749 00 00
+998 90 749 77 77
+998 91 902 05 01
**E-mail:** saen_2024@mail.ru
**Jurnal sayti:** www.saen.uz
**Telegram kanali:** **https://t.me/saen_2024**

**Maqolada keltirilgan fakt va ma'lumotlarning to'g'riligi uchun mualliflar mas'uldirlar.**

"Fan va ta'lim yangiliklari" ilmiy-amaliy jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining qarori (25.08.2025 y., №374/5) bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

**ISSN:** 3093-8694

© 2026 Fan va ta'lim yangiliklari